

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA DINIY MAZMUNGA EGA ORNITONIMLARNING QO‘LLANILISHI

N.R.Maxmudova

Farg‘ona davlat universiteti, Ingliz filologiyasi kafedrasи, katta o‘qituvchisi

nargizam148@gmail.com

ANNOTATSIYA. Maqolada ornitonimlar, o‘zbek va ingliz tillarida ularning ifodalanish xususiyatlari, diniy mazmunga ega ornitonimlar haqiga fikr yuritiladi.

KALIT SO‘ZLAR: ornitonimlar, semantik-struktur, tarixiy-funksional, tabiiy ornitonimlar; mifologik ornitonimlar; badiiy ornitonimlar; diniy ornitonimlar.

Ornitonimlar semantik jihatdan turli semantik guruhlarga ajratilishi mumkin, ya;ni: tabiiy ornitonimlar, mifologik ornitonimlar, badiiy ornitonimlar, diniy mazmunga ega ornitonimlar hamda ramziy mazmunga ega ornitonimlar kabilardir.

Diniy mazmunga ega bo‘lgan qush nomlari butunlay alohida belgiga ega. Ular hayotda ham mavjud bo‘lib, diniy matnlarda tilga olinadi. Masalan, Qur’oni Karimning “Fil” surasida *abobil* qushlari islom dinida Ka’bani buzishga kelayotgan Qadaha qo‘sishini sopol parchalar otib yakson qilganligi haqida ma’lumot keltirilgan. Tirik tabiatning eng ajoyib mo‘jizalaridan biri bo‘lgan qushlar ichida jannat qushlari (*Paradisaeidae*) deb nomlanuvchi chumchuqsimonlar turkumiga mansub qushlar oilasi mavjuddir. Ushbu oilaning eng kichik vakili *qirol jannat qushi* bo‘lib, uning uzunligi o‘n besh santimetr, og‘irligi ellik gramm atrofida bo‘ladi. Eng yirik vakili *jimjimador monukodiyani*ning uzunligi esa qirq to‘rt santimetri, og‘irligi to‘rt yuz o‘ttiz grammni tashkil etadi. Alfred Rassel Uolles 6 yil davomida Avstraliya zoogeografik hududida yashab, o‘rganganlari natijasida o‘zining mashhur “Malay arxipelagi” (1869) nomli asarini yozadi va unda jannat qushlari haqida juda ko‘p ma’lumotlarni keltirib o‘tadi. Jannat qushlarining patlari nihoyatda chiroyli bo‘lgani uchun ularni qadimdan ovlashga bo‘lgan qiziqish katta bo‘lgan. Bu o‘z navbatida qushlarning tur va individ soni kamayishiga, ular yashaydigan hududlar maydoni keskin qisqarib ketishiga olib keldi. Hozirda jannat qushlarining ko‘pgina turlari Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan bo‘lib, ularni ovlash taqiqланади [1]. Ingliz ornitologи

Uilliyam Jon Sweynson “*Paradisaeidae*” deb nomlangan jannat qushlari oilasini taqdim etdi. Bundan tashqari qush obrazi diniy tushunchalarda ancha keng yoritilgan. *Jannatga qush qalbli insonlar kiradilar*, deb yoziladi. Qushlar nomini anglatuvchi so‘zlar, odatda, konkret otlar sirasiga kirib, obyektiv mavjud bo‘lgan narsalar nomini bildiruvchi birliklar hisoblanadi.

Kishilar qadimda mo‘jizaviy qushlar haqida afsonalar to‘qishgan. Qushlar azaldan kishilarning orzulari timsoli bo‘lib, ularning osmonda parvoz qilishi, qanot qoqishi insonlarda havas tuyg‘usini uyg‘otgan bo‘lsa ehtimol. Afsonalar kishilarning erkin ijod mahsuli bo‘lganligi bois ularda to‘qima obraz, xayoliy tasavvurlarga keng imkoniyat tug‘iladi. Mifonimlarning vujudga kelishida aynan shu omil katta rol o‘ynaydi.

Ingliz diniy matnlarida tovuq – hen obrazi o‘z polaponlariga nisbatan mehribon ona sifatida tasviralanadi: *“How often I have wished to gather together your children, as a hen gathers together her young under her wings, and you were not willing. Now behold, your house will be left to you desolate”* [2].

L.Filindash o‘zining kaptar obrazining muqaddas matnlaridagi qo‘llanishi haqidagi maqolasida *голубь - kaptar* va *горлинка/горлица - musicha* so‘zlarini sinonim sifatida ishlatilganligini ta’kidlaydi va: “Agar Masihning amrlarida kaptar muloyimlik, zukkolik, ishonch, poklik ramzi sifatida namoyon bo‘lsa: “... ilonlar kabi dono va kaptarlar kabi sodda bo‘linglar”, musicha esa vafot etgan turmush o‘rtoqlariga sodiq bo‘lgan bevalar, shuningdek, rohiblar bilan, darveshona hayot tarzini olib boradigan solih odamlar obrazi bilan bog‘lanadi”. Yana bir mashhur ramz – ikkita kaptar - sevgi, oilaviy sadoqat, oilaviy baxtni anglatadi. Kabutar sevgi, unumdarlik, nikoh, oila, onalik ma‘budalarining atributi ekanligi bejiz emas. Quyidagi jadavalda tadqiqotchi xristianlikda kaptar obrazi timsolini umumlashtirgan holda taqdim etadi:

<i>Kaptar tasviri</i>	<i>Ramziy timsoli</i>
Tumshug‘ida novdasi bilan	Ruh, Masihdagi yangi hayot
Uzum urug‘i bilan	

Uzumzorda Bir qadahdan ichayotgan kabutarlar	Xristian ruhi, samoviy ne'matlardan bahramand bo'ladi Najot izlayotgan imonlilar Ruh, hayot suvini ichuvchi
Yetti kaptar O'n ikki kaptar Kaptarlar suruvi	Muqaddas Ruhning yetti in'omi O'n ikki havoriy Imonli xristianlar
Ikki kaptar Iosif (Yusuf) ning gullab turgan tayog'ida o'tirishi	Sevgi, doimiylik, rozilik Iffatli, dono bo'lish
Muqaddas shahidlarning og'zidan uchib chiqishi	Jon
Oltin nurlar bilan osmondan tarqash	Muqaddas Ruh, Uchbirlik (Troysa)ning uchinchi shaxsi, suvga cho'mish (cho'qintirish), Epifaniya, Muqaddas Ruhning tushishi

Shuningdek, diniy matnlarda odam-qush obrazi ham mavjudligi ta'kidlanadi: “Qush-odam tushunchasi Yangi Ahdga kiritilgan, bu yerda osmon qushlari inson qalbining ramziga aylanadi. Faqat surgun dunyosi endi Bobil shohligi emas, balki butun koinot, uyi esa Quddus tog'i, Osmon Shohligi”[3].

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki, har qanday tilda qush nomlari turli semantik guruhlarda va kontekstlarda keng qo'llaniluvchi hamda uslubiy o'ziga xosliklarga ega leksemalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://hujayra.uz/jannat-qushlari/>
2. The Gospel of Matthew. URL: <http://bibletranslation.ws/matt.html> (2017)
3. Герасимова С. Библейский логос и светский архетип птицы, курицы, петуха. С.436.

4. Maxmudova, N. (2023). LEXICAL CONTENT OF ORNITONYMS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES: filological Science. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(08), 55-59.
5. Maxmudova, N. (2023). Forming Methods of Ornithonyms in Uzbek and English. Languages. Miasto Przyszłości, 32, 342-346.
6. Maxmudova, N. (2022). PRAGMATIC SIGNS OF ORNITHONYMS IN PROVERBS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(2), 88-91.
7. Maxmudova, N. (2022). USE OF UNIONS WITH BIRD NAMES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES, COMPARATIVE ANALYSIS OF ORNITONYMS. Scientific journal of the Fergana State University, (1), 50-50.
8. Maxmudova, N. (2021). BIRD NAMES REALLY MATTER: FEATURES OF ORNITHONYMES IN LANGUAGE. Theoretical & Applied Science, (5), 116-118
9. Makhmudova, N. R. (2019). The use of multimedia learning tools in the English language. Мировая наука, (9 (30)), 44-46.